XALQ DEPUTATLARI YANGIYER SHAHAR KENGASHI

Q A R O R I

121000, Yangiyer shahar Yangi asr ko'chasi, telefon: 350-10-76

2024 - yil 14 - fevral VI-81-27-9-132-K/24 Yangier shahar hokimligi

Yangiyer shahar Abdurahmon Jomiy nomli mahallada joylashgan nomlanmagan qabristonga nom berish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 16-oktyabrdagi "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Geografik ob'ektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq geografik ob'ektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida"gi 295-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Yangiyer shahar Abdurahmon Jomiy nomli mahalla fuqarolar yig'ining murojaati hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik ob'yektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o'tkazish ekspert komissiyasining 2023-yil 13-sentabrdagi 1-14/89-sonli yig'ilishida bayon qilingan ekspert xulosasiga asosan, Xalq deputatlari shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha shahar komissiyasi raisining o'rinbosari N.Kurbonovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yangiyer shahar Abduraxmon Jomiy nomli mahalla fuqarolar yig'ining murojaati hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik ob'ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o'tkazish ekspert komissiyasining 2023-yil 13-sentabrdagi 1-14/89-sonli xatida bayoni ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o'tkazish ekspert komissiyasining 2023-yil 13-sentabrdagi 1-14/89-sonli yig'ilish Bayonnomasi va "Geografik ob'ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida"gi ekspert xulosasiga asosan shahardagi mavjud qabristonning qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan nom ilovaga asosan tasdiqlansin.

4. Shahar obodonlashtirish boshqarmasi (Q.Radjabov) shahar bosh imom xatibi (X.Isayev) 1 oy muddatda qabriston nomi belgilangan tartibda zamonaviy ko'rinishdagi (lotin yozuvida) peshlavhalarga yozib o'rnatish va olib borilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni

belgilangan muddatda “Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha shahar komissiyasi (N.Kurbonov) ga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

5. Shahar qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (N.Abdusalomov), kadastr agentligining shahar bo‘limi boshlig‘i (J.Otamurodov), Davlat kadastrlar palatasi shahar filiali boshlig‘i (A.Ulashev) shahar Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i (A.Bekmatov), shahar statistika bo‘limi boshlig‘i (N.Xo‘janboyev), shahar moliya bo‘limi boshlig‘i (Sh.Xudoyberdiyev), shahar davlat xizmatlari markazi rahbari (O.Nazarov) va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda o‘zgargan qabriston nomini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda boshqa tegishli tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq jarayonlarni amalga oshirsinlar.

6. Shahar hokimligi matbuot xizmati (F.Xaydarov), “Yangiyer hayoti” gazetasi (B.Abdullayev) ushbu qarorning matni, mazmunini va ahamiyatini ommaviy axborot vositalarida yoritsin.

7. Shahar kengashining 2024-yil 13-fevraldagi VI-81-26-9-132-K/24-son “Yangiyer shahar Abdurahmon Jomiy nomli mahallada joylashgan nomlanmagan qabristonga nom berish to‘g‘risida”gi qarori shahar adliya bo‘limidan huquqiy ekspertizadan o‘tkazilmaganligi sababli hamda adliya bo‘limining 2024-yil 13-fevraldagi 1-20/46-sonli taqdimnomasiga asosan bekor qilinsin.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (G’.Xoljigitov) hamda Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi raisi o‘rinbosari (N.Kurbonov) zimmasiga yuklatilsin.

9. Qaror rasmiy nashrlarda e’lon qilingandan so‘ng kuchga kiradi.

Kengash raisi **O.Nosirov**

Xalq deputatlari Yangier shahar
Kengashining
2024-yil 14-fevraldagi
VI-81-27-9-132-K/24-son qaroriga
1-ilova

Yangiyer shahar Abdurahmon Jomiy nomli mahallada joylashgan nomlanmagan qabristonga Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan

TAKLIF

№	Geografik ob’ektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik ob’ektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif
1.	Qabriston	Abdurahmon Jomiy nomli M.F.Y	Nomsiz	Abadiyat